



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05 - yanvar 2022
Ma'qullandi: 10 - yanvar 2022
Chop etildi: 15 - yanvar 2022

KALIT SO'ZLAR

*Bilim, mahorat, sodiqlik,
tajriba, odob-axloq,
layoqatlik*

Kasb-kishining mehnat faoliyati , doimiy mashg'uloti turi ; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor; masalan shifokorlik kasblarida xirurg , oftalmolog ,dermatolog va boshqalar bor. Kasb odatda, shaxsning asosiy trikhilik manbai hisoblanadi. Amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Jamiyatning har bir kasb-hunarga , ixtisosga beradigan odob-axloq bahosi ikki asosiy omil bilan, birinchidan, mazkur kasb-hunar vakillarining jamiyat rivojlanishi uchun nimalar berishi bilan , ikkinchidan, jamiyatga ma'naviy ta'sir ko'rsatish ma'nosida ularga nimalar berish bilan belgilanadi .Ana shu odob-axloq baho omillariga ko'ra, kasb odobini har bir kasb-

KASB MADANIYATI

Yusufjanov Anasxon Ikrom o'g'li¹

¹Namangan davlat ubiversiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5863323>

ANNOTATSIYA

Har kim qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar o'z kasbiga ma'sulyat bilan yondoshmog'i lozim.Kasb qiziqishga qarab tanlanishi kerak.

hunarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va vazifalariga qarab bir necha turga ajratish mumkin; o'qituvchilik ixtisosiga qarab:

Pedagog axloqi;

Huquqni muhofaza qilish ixtisosiga qarab-yurist axloqi;

Xizmat ko'rsatish ixtisosligiga qarab-xizmat ko'rsatish odobi va hokazo.

Kasb odobi talablari umumiy bo'lishiga qaramay ba'zi bir kasbiy faoliyatlarni olib borishda alohida xulq atvor me'yorlarini ham e'tiborga olish kerak. Masalan, tibbiyot hodimi o'z amaliyotidagi qiyinchiliklarga qaramay, insonning jismoniy va ma'naviy sog'lig'i uchun kurashishi kerak bo'lsa bunda o'zini ham ayamasligi lozim, ya'ni shifokorning qasamiyod burchi unga har qanday vaziyatda ham qiyinchiliklarga qaramasdan, ba'zi hollarda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham bemorga yordam berishga undaydi.Huquq vakillaridan kasb odobida sodiqlik,hammaning qonun oldida



teng ekanligi tamoyiliga rioya qilishlari talab etiladi. Xizmat ko'rsatish sohasi vakillaridagi odob-axloq meyorlari, avvalambor, muomala madaniyati va mijozlarning ehtiyojini qodirishga, diqqat-e'tiborning kuchli bo'lishiga qaratilgan bo'ladi.

Maktabni bitirgan bolalarning ko'pchilik qismi o'rtoqlik yoki do'stlik prinsipi bo'yicha kasb tanlaydilar, faqat birga bo'lishni maqsad qilib o'qishga, ishga kiradilar. Xo'sh, bu yaxshimi yoki yomonmi?

Agar do'stlaringiz qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari bir xil kasb sohasidagi faoliyatga mos kelib qolgan hollarda bu yaxshi, albatta. Lekin ularning birortasi "sheriklari shu kasbni tanlagani uchun" bunday qilgan bo'lsa, u holda yomon albatta. Bunday hollarda odatda kishi afsuslanib qoladi va oradan uzoq vaqt o'tgach, ba'zan esa mashaqqatli sarsongarchilikdan keyin dastlabki tanlagan kasbini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Albatta, birorjoyda o'rtog'ing bilan yonma-yon ishlashga nima yetsin. Lekin har bir kishi o'z mehnat yo'lini tanlar ekan, eng avvalo, shu kasb men ishlay oladigan sohamikin, bu ishni eplay olarmikinman, shu kasbga mos kelarmikinman, shu sohada ishlasam qanday natijalarni qo'lga kiritarkinman? - degan savollar to'g'risida o'ylamog'i kerak.

Kasbga doir reja tuzish.

Kasbga doir rejada kishining o'z-o'zini tarbiya qilish dasturi: kasbga oida muhim bo'lgan qanday vazifalarni shakllantirish va rivojlantirish, o'z sog'ligini qanday qilib mustahkamlash mumkinligi va boshqa shu kabi tadbirlar ham o'z ifodasini topishi kerak.

O'z bilimlarini mustaqil olib borish o'z ustida ishlash masalalariga ham qanday

adbiyotlarni o'qish, qanday to'garaklarda yoki qiziqish bo'yicha tuzilgan guruhlarda shug'ullanish, qanday ko'rgazmalarni borib ko'rish singari masalalarga ham alohida e'tibor berish lozim. Shunday qilib bundan ko'rinib turadiki, shaxsiy kasbga oid rejalar yaxshi va har tomonlama o'ylanga bo'lishi kerak, ularni tuzish vaqtida har bir kishi mustaqillik ko'rsatishi va mas'uliyatni his qilib turishi lozim.

Qaysi kasbni tanlashni bilmayapsizmi?

Qiziqishlaringiz ko'pligidan qaysi sohani tanlash haqida o'ylaysiz. Ko'pchilikni muammosi quyidagicha: Qaysidir ishga joylashasiz lekin ko'nglingiz rozi emas. Ishxonada vaqt tezroq o'tishini, uyga borishni o'ylaysiz. O'zingizni majburlab ishlaysiz. Qachon oy oxiri bo'larkin va maosh olaman deb vaqt o'tkizasiz. Shuni bilingki, boy odam bilan kambag'al odam o'ratsidagi asosiy farqlardan biri shundaki: boy odamlar o'zi uchun zavqli ishni tanlaydi, mehnatdan zavq olib ishlaydi. Boy odamning kasbi unung uchun dam olishdek bo'ladi. Kambag'al toifadagi ko'p odamlar esa ko'p pul keltiradigan ishda ishlashni orzu qiladi. Kambag'al odamlar mehnatdan zavq olishni emas, ko'p pul olishni o'ylaydi. Kasbi qiyin o'ziga yoqmaydigan bo'lsa ham pul uchun ishlayveradi. Bu esa, kasb madaniyatidan chiqish hisoblanadi. Chunki bu paytda kishida o'z kabiga mas'uliyatlilik emas, balki ishiga nisbatan loqaydlik hissi paydo bo'ladi. Bu esa ish jarayonida turli xil muammolarni keltirib chiaradi. Shunday holatlarning oldini olish maqsadida inson o'z qiziqishlaridan kelib chiqib kasb tanlashi maqsadga muvofiq.

Farzandingiz yoshligidan qaysi sohaga qiziqishi, aqliy va jismoniy imkoniyatlarga ega e'tibor qarating.



Maktabdagi o'qituvchilar, sinf rahbarlari bilan bu haqida maslahatlashib turing. Albatta o'zingiz yashayotgan hududdagi iqtisodiyot tarmoqlarida rivojlanayotgan va yangidan qo'shilayotgan va ular bilan bog'liq bo'lgan kasblar haqida ma'lumot to'plab boring. Bu jarayon har yili maktablarda o'tkaziladi. Umumta'lim maktablarining 8-9-sinf o'quvchilari va ularning ota-onalari o'rtasida qaysi kasb-hunar kolleji yoki akademik litseyda o'qishni davom ettirishni bilish maqsadida so'rovnomalar o'tkaziladi. So'rovnomaga kelgan ota-ona va o'quvchi aynan shu vaqtda o'zlariga "qaysi kollej yoki akademik litseyi tanlasam ekan?" degan savolni bermaslik kerak. Ota-ona farzandi 14-15 to'lganida o'g'li yoki qizining kasb egasi bo'lishi haqida yakuniy qarorga kelgan bo'lishi kerak. Farzand tarbiyasi yo'lida tashlangan har bir to'g'ri qadam uning kelajakdagi o'z o'rnini topib ketishi uchun mustyahkam asos bo'ladi. Shunday ekan har bir ota-onalar, farzandining kelajagiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Kasb tanlash yoki kasbiy o'z o'zini belgilash insonning jamiyatdagi o'zini o'zi tasdiqlashning asosi, uning hayotdagi asosiy qoidalardan biridir. Kasb tanlash ko'p narsani belgilaydi, kim bo'lishni, qayerda va kim bilan ishlashni, qanday turmush tarzini tanlash kerak.

"Kasb tanlash" konsepsiyasini aniqlashning turli hil variantlari mavjud, ammo ularning barchasi kasbiy o'zini o'zi belgilash sub'ektining ichki resurslarini tahlil qilish natijasida qilingan tanlovdir degan fikrni o'z ichiga qamrab oladi, kasb tanlash va ularni kasb talablariga muvofiqlashtirish.

Kasb tanlash bu ikki tomonlama hodisadir – kim tanlaydi, nimani tanlaydi.

Ham mavzu ham o'bekt juda ko'p sonli xususiyatga ega va bu kasb tanlash fenomenining noaniqligini tushuntiradi.

Kasb tanlash ya'ni kasbiy o'z o'zini belgilash bir martalik harakat emas, davomiyligi kasb tanlash sub'ektining tashqi sharoitlari va individual xususiyatlariga bog'liq bo'lgan bir necchta bosqichlardan iborat. Shaxsiy yondashuv nuqtai nazaridan professional o'zini o'zi aniqlash jarayoning to'rtta bosqichi ajratib ko'rsatilgan.

1. Mehnatning turli sohalarida kasbiy niyatlar va boshlang'ich yo'nalishning paydo bo'lishi va shakllanishi.

2. Tanlagan kasbini egallash sifatida kasbiy tayyorgarlik.

3. Faoliyatning individual uslubini shakllantirish va ishlab chiqish, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritish bilan tavsiflanadigan kasbiy moslashuv.

4. Ishda o'z o'zini anglash – kasbiy ish bilan bog'liq bo'lgan kutishlarning bajarilishi yoki bajarilmasligi.

Shunday qilib, professional o'z taqdirini belgilash butun davrni qamrab olgan jarayon sifatida qaraladi kasbiy faoliyat shaxsiyat: ishdan chiqish uchun professional niyatlarning paydo bo'lishidan. Rivojlanish psixologiyasi kasbiy o'z o'zini belgilashning boshlanishi – birinchi bosqich – bolalar o'yinlari bilan belgilaydi, bunda bola turli xil professional rollarni bajaradi va bu bilan bog'liq xatti-harakatlarning elementlarini o'ynaydi.

Ikkinchi bosqich- o'spirin uchun joxibxli turli kasblar keltirib chiqaradigan o'spirin xayollari.

Uchinchi bosqich – o'spirinlik va o'smirlikning aksariyati – kasbiy faoliyatning har xil turlari saralanib, qiziqish qobiliyat va o'spirin yoki yigitning



qadriyatlar tizimi nuqtai nazaridan saralanib, oldindan kasb tanlash.

To'rtinchi bosqich bu-amaliy qarorlar qabul qilish bo'lib , u ikkita asosiy komponentni o'z ichiga oladi: 1) malaka darajasini , kasbiy tayyorgarlikning hajmi va darajasini aniqlash ; 2) mutaxassislikni tanlash. Demak professional o'zini anglash jarayoni insonning butun hayotini qamrab oladi. Biroq bu jarayonning eng yuqori nuqtasi, hayotning burilish nuqtasi , kasb tanlash to'g'risida qaror qabul qilishdir . Vaqt o'tishi bilan , o'rta maktab tugashiga to'g'ri keladi . Ushbu lahza kasbiy o'z o'zini belgilashning oldingi bosqichlari bilan bog'liq va insonning o'tmishdagi tajribasi kasb tanlash qaroriga ta'sir qiladi. Psixologik adabiyotlarda kkasb tanlash qanday shakllanganligi va bu jarayonda qanday omillar ta'sir ko'rsatishi to'g'risida bir xil fikrlar mavjud emas.

Bir qator qarashlar mavjud , ularning har biri jiddiy dalillarga ega. Bu kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonining murakkabligi va kasb tanlash holatining noaniqligi bilan belgilanadi.

An'anaga ko'ra umumiy sxema kasblarning tavsiflari 4 jihatdan nazarda tutdi : 1)ijtimoiy -iqtisodiy - kasbning qisqacha tarixi , uning iqtisodiy tizimdagi

o'rni , kadrlar tayyorlash , lavozimga ko'tarish istiqbollari , ish haqqi to'g'risidagi ma'lumotlar.

2)ishlab chiqarish va texnik ma'lumotlar texnologik jarayon , obekt , asboblari va mehnat predmeti , ish joyi , mehnat tashkil etish shakllari .

3)psixofiziologik -psixik jarayonlar va shaxsiyat xususiyatlarning xususiyatlarga kasbning talablari.

Kasbiy faoliyatni tanlash motivlari ;

Hayotiy qadriyatlar;

O'tmish tajribasi;

Kasab tanlashda obe'ktiv omillar :

1)o'qitish darajasi;

2)sog'liqni saqlash holati;

3)kasblar dunyosidan xabardor bo'lish;

4)ijtimoiy xususiyatlar: ijtimoiy muhit, uy sharoitlari , ota - onalarning ta'lim darajasi .

Shunday qilib , kasb tanlash madaniyati ongli ruhiy o'z o'zini boshqarish darajasi bilan bog'liq bo'lgan fazilatlarini kasb tanlashda yetakchi omillardan biri hisoblanadi . Bundan tashqari , ushbu omillar ta'siri sube'kting o'ziga hos va tashqi ta'siriga xos bo'lgan boshqa omillar ta'siriga vositachilik qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллазизов А., Доцент К. С. Н. К Вопросы О Высоконравственном Человеке //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 9. – С. 57-61.
2. Abdullazizov A. PHILOSOPHICAL PERCEPTION OF THE NECESSITY DEVELOPING SOCIAL INVESTIGATIONS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 10. – С. 196-200.



3. Oktyabrovich G. N. Formation of Religious Tolerance in Young People //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 17. – С. 114-116.
4. Oktyabrovich G. N. The Role of Trade Relations with China in the International Trade Relations of Central Asia //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 37-40.
5. Гафуров Н. О. Историческая ретроспектива сотрудничества народов Узбекистана и Китая //Учёный XXI века. – 2020. – №. 1 (60). – С. 33-36.
6. Gofurov N. O. INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA //Ўтмишга назар журнали. – 2019. – Т. 17. – №. 3.
7. Makkamov K. O. Historical Consciousness: As the Basis of National Social Memory //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 10. – С. 41-45.
8. Kodirov, N. (2020). Problems of the globalization of information culture in the current time. In Știință, educație, cultură (Vol. 4, pp. 272-274).
9. KODIROV, Nodirbek. Problems of the globalization of information culture in the current time. In: Știință, educație, cultură . Vol.4, 15 februarie 2020, Comrat. Comrat, Republica Moldova: Universitatea de Stat din Comrat, 2020, pp. 272-274. ISBN 978-9975-83-094-2.
10. Kodirov N. M. TRANSFORMATION AND GLOBALIZATION OF INFORMATION MEDIA //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 12. – С. 83-93.
11. Kadirov N. M. SOCIAL AND PHYSICAL EXPERIENCE OF INFORMATION AND INFORMATION CULTURE //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 3. – С. 165-170.